



## XORAZM VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


*2025-yil 1- iyul holatiga ko'ra*

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

### I. Korxona va tashkilotlarning soni

2025- yil 1- iyul holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 26 103 tani tashkil etadi, shundan 22 709 tasi yoki 86,9 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2024-yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 99,4 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 98,8 foizni tashkil etdi.

#### *Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda)*





|             | <b>Korxona va tashkilotlar</b> | <i>shundan:</i>                 |                                  |
|-------------|--------------------------------|---------------------------------|----------------------------------|
|             |                                | <b>Tadbirkorlik subyektlari</b> | <i>shundan:</i>                  |
|             |                                |                                 | <b>Kichik biznes subyektlari</b> |
| <b>2025</b> | 26 103                         | 22 843                          | 22 709                           |
| <b>2024</b> | 26 272                         | 23 117                          | 22 984                           |
| <b>2023</b> | 26 331                         | 23 279                          | 23 152                           |
| <b>2022</b> | 26 775                         | 23 666                          | 23 535                           |
| <b>2021</b> | 23 751                         | 20 704                          | 20 587                           |

Tumanlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Urganch shahrida – 19,5 foiz, Urganch – 11,2 foiz, Xonqa – 8,1 foiz va Qo'shko'pir tumanlarida – 7,3 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Urganch shahrida – 19,2 foiz va 19,1 foiz, Urganch – 11,4 va 11,4 foiz, Xonqa – 8,3 foiz va 8,2 foiz hamda Qo'shko'pir – 7,2 foiz va 7,2 foiz tumanlarga to'g'ri keldi

|             | <b>Korxona va tashkilotlar</b> | <i>shundan:</i>                 |                                  |
|-------------|--------------------------------|---------------------------------|----------------------------------|
|             |                                | <b>Tadbirkorlik subyektlari</b> | <i>shundan:</i>                  |
|             |                                |                                 | <b>Kichik biznes subyektlari</b> |
| Bog'ot      | 1 770                          | 1 538                           | 1 529                            |
| Gurlan      | 1 604                          | 1 383                           | 1 380                            |
| Qo'shko'pir | 1 921                          | 1 673                           | 1 665                            |
| Urganch     | 2 916                          | 2 622                           | 2 599                            |
| Hazorasp    | 1 702                          | 1 463                           | 1 458                            |
| Tuproqqal'a | 752                            | 633                             | 629                              |
| Xonqa       | 2 131                          | 1 899                           | 1 893                            |
| Xiva        | 1 720                          | 1 518                           | 1 510                            |
| Shovot      | 1 737                          | 1 492                           | 1 486                            |
| Yangiariq   | 1 781                          | 1 596                           | 1 590                            |
| Yangibozor  | 1 147                          | 974                             | 969                              |
| Urganch sh. | 5 110                          | 4 401                           | 4 355                            |
| Xiva sh.    | 1 812                          | 1 651                           | 1 646                            |

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)


[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)



### **Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi savdo tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025- yil 1- iyul holatiga 32,6 foizni (37,2 foiz va 37,4 foiz) tashkil etdi.

#### **Korxona va tashkilotlar**



Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 13,7% (15,6% va 15,5%), uchinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 12,2% (13,8% va 13,9 %).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ular umumiy sonining 58,5 % dan ortig'ini tashkil qiladi.


|                                                    | Korxona va tashkilotlar | shundan:                 |                           |
|----------------------------------------------------|-------------------------|--------------------------|---------------------------|
|                                                    |                         | Tadbirkorlik subyektlari | shundan:                  |
|                                                    |                         |                          | Kichik biznes subyektlari |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi           | 3 187                   | 3 166                    | 3 157                     |
| Sanoat                                             | 3 577                   | 3 570                    | 3 538                     |
| Qurilish                                           | 1 466                   | 1 448                    | 1 435                     |
| Savdo                                              | 8 510                   | 8 510                    | 8 494                     |
| Tashish va saqlash                                 | 990                     | 987                      | 980                       |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | 1 664                   | 1 650                    | 1 647                     |
| Axborot va aloqa                                   | 435                     | 419                      | 419                       |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 758                     | 553                      | 553                       |
| Boshqa turlar                                      | 5 516                   | 2 540                    | 2 486                     |



## I. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, 22 843 ta faol tijorat korxonalaridan 14 872 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.

### *Tadbirkorlik subyektlari*



Shundan kelib chiqib, MCHJ lar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

|                                | Tadbirkorlik<br>subyektlari soni (birlikda) | Tadbirkorlik<br>subyektlarining<br>jamiga nisbatan ulushi<br>(foizda) |
|--------------------------------|---------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------|
| Mas'uliyati cheklangan jamiyat | 14 872                                      | 65,1                                                                  |
| Xususiy korxonalar             | 3 924                                       | 17,2                                                                  |
| Oilaviy korxonalar             | 3 818                                       | 16,7                                                                  |
| Aksiyadorlik jamiyati          | 28                                          | 0,1                                                                   |
| Boshqalar                      | 201                                         | 0,9                                                                   |




## II. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan 165 ta korxonadan 60 tasi qo'shma korxona va 105 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

### Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar



2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni 2024-yilning mos davriga nisbatan 38 taga oshgan. Bu asosan, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar sonining 0 tadan 13 taga (o'sish 13 taga), savdo sohasida 37 tadan 47 taga (o'sish 10 taga) va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 11 tadan 15 taga (o'sish 4 taga) ko'payishi hisobiga to'g'ri keldi.

|                                                    | Jami: | shundan:        |                 |
|----------------------------------------------------|-------|-----------------|-----------------|
|                                                    |       | Qo'shma korxona | Xorijiy korxona |
| Jami:                                              | 165   | 60              | 105             |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi           | 15    | 10              | 5               |
| Sanoat                                             | 39    | 19              | 20              |
| Qurilish                                           | 15    | 4               | 11              |
| Savdo                                              | 47    | 12              | 35              |
| Tashish va saqlash                                 | 4     | 2               | 2               |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | 8     | 3               | 5               |
| Axborot va aloqa                                   | 13    | 0               | 13              |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 2     | 1               | 1               |
| Boshqa turlar                                      | 22    | 9               | 13              |



### Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 38 ta korxona bilan Rossiya Federatsiyasi egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 23,1 foizini tashkil etdi. Xorazm viloyati iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Turkmaniston (20,0%), Turkiya (17,6%), va Xitoy (9,6%) ham alohida o'rin egalladi.

|                      | Jami:      | shundan:        |                 |
|----------------------|------------|-----------------|-----------------|
|                      |            | Qo'shma korxona | Xorijiy korxona |
| <b>Jami:</b>         | <b>165</b> | <b>60</b>       | <b>105</b>      |
| Xitoy                | 16         | 5               | 11              |
| Rossiya              | 38         | 18              | 20              |
| Turkiya              | 29         | 14              | 15              |
| Qozog'iston          | 4          | 2               | 2               |
| Buyuk Britaniya      | 2          | 1               | 1               |
| Janubiy Koreya       | 3          | 3               | 0               |
| AQSH                 | 3          | 2               | 1               |
| Turkmaniston         | 33         | 5               | 28              |
| Pokiston             | 2          | 0               | 2               |
| Yaponiya             | 3          | 2               | 1               |
| Qirg'iz.Respublikasi | 4          | 1               | 3               |
| Hindiston            | 1          | 0               | 1               |
| Boshqalar            | 27         | 7               | 20              |
|                      |            |                 |                 |



### III. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025- yil 1- iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi..

#### **Metama'lumot uchun havolalar:**

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

#### **Mavzuga doir ko'rsatkichlar::**

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

---

**Tayyorlash uchun ma'sul:**  
Raqamlashtirish va statistik  
registrlarni yuritish bo'limi

**Ijrochi:**  
D.Kurbanova  
(62) 224-65-11

**Manzil:**  
220100, Urganch sh.,  
Al-Xorazmiy ko'chasi, 93-uy

---